

**XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI**

**Ravshanov To‘yli Gulmurodovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

Turizm sohasini rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda moliyalashtirish shaklida ham davom ettirilgan. Bunda turizm salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarni rivojlantirish bo‘yicha hukumat hamda davlat rahbarining tegishli qaror hamda farmonlari qabul qilingan.

Xususan, Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini targ‘ib qilish, shuningdek zamonaviy turizm infratuzilmasini barpo etish, turistlarga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-maydagi “2017-2021-yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2953-son qarori ishlab chiqilgan.

Ushbu qarorga muvofiq Xiva shahrining “ochiq osmon ostidagi muzey” sifatidagi xususiyati, shuningdek, Xorazm viloyati hududida joylashgan 250 ta me‘moriy, tarixiy, madaniy va san‘at obidalari diqqatga sazovordir. Insoniyatning bebaho merosi - Xiva shahrining qadimiy qismi - “Ichon qal‘a” YUNESKONing Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritish hamda turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada rivojlantirish va oshirish, Xiva shahrining noyob tarixiy-madaniy va me‘moriy obidalari, shu jumladan ochiq osmon ostidagi “Ichon qal‘a” qal‘a shaharcha-muzeyi hududidagi yodgorliklar bilan turistlarni keng tanishtirish belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun respublika, mahalliy, tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlarning 11 226,0 mln. so‘mlik mablag‘lari hamda grantlari jalb etilgan. Jumladan:

1. Urganch-Xiva yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan obyektlarda transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi maxsus transport tashkilotini tashkil etish uchun tijorat banklarining 2 211,0 mln. so‘mlik mablag‘lari;
2. Urganch-Xiva yo‘li bo‘ylab mahalliy aholining turmush tarzi bilan turistlarni tanishtirish uchun turistik marshrutlarni tashkil qilish uchun mahalliy budjetdan 160,0 mln. so‘mlik mablag‘lar;
3. Hazorasp tumanidagi “Hazorasp qal‘a” qal‘asi negizida quyidagilarni o‘z ichiga olgan turizm majmuasini tashkil qilish uchun mahalliy budjetdan 3 000,0 mln. so‘mlik mablag‘lar;
4. Hunarmandlar do‘konlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, do‘konlar va boshqa zarur infratuzilmalarni tashkil etgan holda turistlarning Shovot tumanidagi “Yusuf Hamadoniy” maqbarasini ziyorat qilish uchun mahalliy budjetdan 1 100,0 mln. so‘mlik mablag‘lar;
5. Shovot tumanidagi “Katqal‘a” qal‘asi hududi bo‘ylab piyoda marshrutini tashkillashtirish, qal‘a atrofidagi ochiq drenaj tizimlarini obodonlashtirish va holatini yaxshilash hamda umumiy ovqatlanish korxonalari va do‘konlar tashkil qilish uchun mahalliy budjetdan 300,0 mln. so‘mlik mablag‘lar;
6. Xiva shahri Mustaqillik ko‘chasida 80 va 120 o‘rinli ikkita restoran qurish uchun mahalliy budjetdan 1 800,0 mln. so‘mlik mablag‘lar;

7. Boshqa turizm obyektlarini barpo etish uchun mahalliy hamda respublika budjetidan 2 655,0 mln. so‘mlik mablag‘lar ajratilgan.

Ushbu ajratilgan mablag‘lar hamda boshqa tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida Xorazm viloyatida ham mahalliy va xorijiy turistlarning tunab qolishi hamda turistik obyektlarni sayohat qilishlari uchun qulay shart-sharoitlar tashkil etilgan.

Ushbu yillar davomida tegishli ishlarning amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash ishlari olib borilishi sababli Xorazm viloyatida joylashtirish vositalari soni sezilarli tarzda oshib borgan.

Xususan, 2017-yilda Xorazm viloyatida joylashtirish vositalarining faqat mehmonxona turi faoliyat olib borgan hamda mazkur yilda hududda atiga 58 ta mehmonxona (2 437 o‘rinli) faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2019-yilda viloyatda jami 152 ta joylashtirish vositalari (4 603 o‘rinli) faoliyat yuritgan.

### 1-jadval

2017-2021-yillarda Xorazm viloyatida faoliyat olib borgan joylashtirish vositalari soni<sup>1</sup>

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami joylashtirish vositalari</b>	birlik	58	69	152	165	183	205	216
<i>O‘rinlar soni</i>	birlik	2437	2646	4603	4785	5106	5988	6094
<b>Mehmonxonalar</b>	birlik	58	64	73	73	82	69	82
<i>O‘rinlar soni</i>	birlik	2437	2598	3809	3837	4068	3891	4468
<b>Oilaviy mehmon uyi va mehmon uylari</b>	birlik		5	69	79	86	96	107
<i>O‘rinlar soni</i>	birlik		48	622	719	789	876	962
<b>Xostellar</b>	birlik			10	10	12	23	19
<i>O‘rinlar soni</i>	birlik			172	173	193	433	444


<sup>1</sup> Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

<b>Boshqalar</b> <i>(motel, kvartira)</i>	birlik				3	3	17	8
<b>O‘rinlar soni</b>	birlik				56	56	788	220

2018-yilda Vazirlar Mahkamasining “Oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 631-son qarorining qabul qilinishi tufayli ushbu hududda yashovchi aholi daromadlarining oshiishi hamda turistlar uchun yanada qo‘shimcha qulayliklar yaratilishi turtki bo‘lib xizmat qilgan.

Umuman olganda, 2019-yilda viloyatda joylashtirish vositalarining yangi turlari hisoblangan, 69 ta (622 o‘rinli) oilaviy mehmon uyi va mehmon uylari hamda 10 xostellar (172 o‘rinli) tashkil etishga erishilgan.

**1-rasm 2017-2023-yillar davomida Xorazm viloyatida faoliyat olib borgan turistik kompaniyalar<sup>2</sup>**



### **kompaniyalar<sup>2</sup>**

Bundan tashqari, viloyatda faoliyat olib borayotgan turistik korxonalar soni 2017-yilda atiga 23 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib, ularning soni qariyb 3 barabarga ortgan holda 58 taga etgan.

<sup>2</sup> Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.


“Covid-19” pandemiyasi sababli 2019-yilda tadbirkorlik subyektlari tomonidan turistik tashkilotlar tashkil etish tendensiyalari deyarli kuzatilmagan.

Xususan, 2020-2021-yillarda ularning soni 3 tadan ortgan bo‘lsa, 2022-yilda 67 tani hamda 2023-yilda esa sezilarli tarzda ortgan holda 87 tani tashkil etgan.

Ushbu yillar mobaynida mahalliy va xorijiy turistlar qulay shart-sharoitlarning tashkil etilishi natijasida ularning viloyatga tashrifi sezilarli darajada oshgan.

### 3-rasm

2017-2023-yillar davomida Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy va



### mahalliy turistlar dinamikasi<sup>3</sup>

Xorazm viloyatida turistlar uchun qulay shart-sharoitlarning tashkil etilishi natijasida hududga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy turistlar soni ham sezilarli ortganini ko‘rish mumkin.

Xususan, 2017-yilda xorijiy mamlakatlardan viloyatga 60,7 ming nafar xorijiy hamda 1 100,0 ming nafar mahalliy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2019-yilda ushbu ko‘rsatkichlar yetti barobar ortgan holda 420,8 ming nafar xorijiy hamda 2 225,8 ming nafar mahalliy turistlarga etgan.

Shu bilan birga, 2019-yilda Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy va mahalliy turistlar soni “Covid-19” pandemiyasi sababli keskin kamayib ketgan. Natijida ushbu yilda

<sup>3</sup> Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

viloyatga atiga 23,1 ming xorijiy hamda 337,5 ming nafar mahalliy turistlar tashrif buyurgan.

2022-yildan boshlab “Covid-19” pandemiyasi bog‘liq bo‘lgan cheklovlarning yengillatilishi sababli barcha hududlarda bo‘lgani singari Xorazm viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlar soni ko‘paya boshlagan.

Xususan, 2022-yilda viloyatga 137,5 ming nafar xorijiy hamda 1 488,5 ming nafar mahalliy turistlar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu ko‘rsatkichlar o‘zining eng yuqori tendensiyalariga yetgan holda 563,5 ming xorijiy hamda 1 880,3 ming nafar mahalliy turistlarga yetgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-549-son. 2019-yil 18-iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil 9-fevral, PF-6165-son) Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 64 b.
5. A.Xudoyorov “O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari” monografiyasi 2021-y. Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-son qarori.
7. Alieva M.T. Assessment of the development potential of the tourism industry in Uzbekistan. Xorijiy maqola Journal of Management Value & Ethics Jan.-March 19, Vol.9 No.1, India ISSN-2249-9512.
8. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz)
9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)